

RAQAMLI DAVRDA YOSHLARNING MA'NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Qo'ldosheva Dilbar G'ofurjon qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Statistika yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirish masalalari yoritilgan. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ijobiy va salbiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, ma'naviy immunitet tushunchasining mohiyati ochib berilib, uni mustahkamlashda oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning o'rni asoslab berilgan. Maqolada yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va raqamli madaniyatni shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli davr, yoshlar, ma'naviy immunitet, axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar, ma'naviyat, tarbiya, raqamli madaniyat.

Bugungi globallashtirish va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda yoshlar hayoti tubdan o'zgarib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt va raqamli axborotlar oqimi yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash tarziga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, bu jarayonlar bilim olish, o'zini rivojlantirish va muloqot imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ma'naviy tahdidlar, zararli g'oyalardan va axborot xurujlarining kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda.

Shu bois, yoshlarning raqamli muhitda o'zligini yo'qotmasdan, mustahkam ma'naviy pozitsiyaga ega bo'lishi, ya'ni ma'naviy immunitetini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Biz XXI asrni bimalol "raqamli asr" deb atash mumkin. Axborot texnologiyalarining rivoji jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi. Ayniqsa, yoshlar kundalik hayotini internetsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn platformalar yoshlar uchun asosiy axborot manbaiga aylandi.

Bugungi yoshlar:

1. yangiliklarni internetdan oladi;
2. bilimlarni onlayn platformalar orqali egallaydi;
3. fikrlarini ijtimoiy tarmoqlarda bildiradi;
4. ko'plab ijtimoiy munosabatlarni virtual muhitda olib boradi.

Shu o'rinda statistik ma'lumotlarni keltirib o'tish lozim:

- Bugungi kunda yoshlarning 90 foizdan ortig'i internetdan har kuni foydalanadi.
- Talaba yoshlarning o'rtacha kuniga 4–6 soati ijtimoiy tarmoqlarda o'tadi.

- Yoshlarning qariyb 65–70 foizi axborotni tekshirmasdan qabul qilishini tan oladi.
- Internet foydalanuvchilarining 50 foizdan ko‘prog‘i yolg‘on yoki manipulyativ axborotga kamida bir marta duch kelgan.

Bu ko‘rsatkichlar yoshlar orasida tanqidiy fikrlash va ma‘naviy immunitet qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa yolg‘on ma‘lumotlarni ajrata bilish va shu kabi ma‘lumotlardan uzoqroq turish kundalik hayotimizning eng asosiy vazifalaridan biri. Bundan tashqari ayrim yoshlar vaqtini samarasiz kontentga sarflamoqda, real hayotdan uzoqlashmoqda, tanqidiy fikrlash qobiliyati zaiflashmoqda. Bu esa ma‘naviy bo‘shliqni yuzaga keltirishi mumkin.

Ma‘naviy immunitet o‘zi nima . Ma‘naviy immunitet — bu shaxsning yot, zararli va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi tura olish qobiliyati bo‘lib, u mustahkam e‘tiqod, sog‘lom dunyoqarash va ongli fikrlash orqali shakllanadi.

Ma‘naviy immunitetga ega bo‘lgan yoshlar:

- axborotni tanlab qabul qiladi;
- yolg‘on va haqiqatni ajrata oladi;
- o‘z milliy qadriyatlariga sodiq bo‘ladi;
- jamiyatda faol va mas‘uliyatli bo‘ladi.

Shu sababli bugungi globallashuv sharoitida aynan ma‘naviy immunitet yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Agarda biz yoshlarimizda bu immunitetni shakllantira olmasak raqamli makonda yoshlar “axloqiy me‘yorlarga zid materiallarga, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kantentlarga va yolg‘on g‘oya hamda manipulyativ axborotlarga aldanishi mumkin. Bu kabi omillar yoshlarning ma‘naviy qiyofasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, hali dunyoqarashi to‘liq shakllanmagan yoshlar bunday tahdidlarga tez berilib ketishi mumkin.

Oila — ma‘naviy immunitetning poydevori. Yoshlarning ma‘naviy immuniteti avvalo oilada shakllanadi. Oila muhiti farzandga:

- milliy qadriyatlar;
- odob-axloq qoidalari;
- internetdan foydalanish madaniyati singdiriladi.

Agar oilada sog‘lom ma‘naviy muhit mavjud bo‘lsa, yoshlar tashqi salbiy ta‘sirlarga kamroq beriladi. Ota-onaning farzand bilan muloqoti, uning qiziqishlariga e‘tibor berishi ma‘naviy tarbiyada muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda ta‘lim tizimining ro‘lini ham aytib o‘tish joiz. Ta‘lim muassasalari yoshlarning ma‘naviy immunitetini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Maktab va oliy ta‘lim muassasalarida:

- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- media savodxonlikni oshirish;
- ma‘naviy-ma‘rifiy mashg‘ulotlarni kuchaytirish orqali yoshlarni ongli shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

Ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki tarbiya masalasiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Maktab va universitetlarda media savodxonlik fanlarini keng joriy etish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy va ma'naviy kontentni ko'paytirish, yoshlarni ilmiy va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish, oila va ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish, raqamli madaniyatni targ'ib qilish o'quvchi va talabalardagi texnologik madaniyatni shakillanishiga yordam beradi deb o'ylayman.

Bundan tashqari O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bilim va ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "yoshlar — mamlakat kelajagi". Shu bois, jamiyatning barcha qatlamlari yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga mas'ul bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, raqamli davr yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, u bilan birga ma'naviy sinovlarni ham olib keldi. Ushbu sinovlarga qarshi turish uchun yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash zarur. Ma'naviy yetuk, ongli va vatanparvar yoshlar jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirish — bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid nutqlari.
2. "Ma'naviyat asoslari" darsliklari.
3. Media savodxonlik va axborot xavfsizligi bo'yicha ilmiy manbalar.
4. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar.